

BUXORO VILOYATI BOLALAR KUTUBXONASI

USLUBIY BO`LIM

**YOSHLAR ORASIDA KITOB MUTOLAASI VA
KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA
KUTUBXONALARNING O'RNI**

**(Jondor tumani 2-umumta'lismaktabi kutubxonasi ish
tajribasidan)**



Бухоро – 2025

Uslubiy bo`lim tomonidan tayyorlandi.

Tuzuvchi: M. Xayrullayeva

Muharrir: M. Akramova

Jondor tumani 2-umumta`lim maktabi kutubxonasida kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatiga bag`ishlangan mazkur ish faoliyati tajribasida kutubxonani bezash, buyuk va mashhur kishilarning kitob va mutolaa haqidagi fikrlaridan namunalar keltirilgan. Shuningdek, kitobxonlik to`g`risida tadbir ssenariysi va ma`rifatparvar jadidlar, bolalar yozuvchilari hayoti va ijodi to`g`risida viktorina savollari turkumi berilgan.



«Dunyodagi har qaysi davlat, har qaysi xalq birinchi navbatda o'zining intellektual salohiyati, yuksak ma'naviyati bilan qudratlidir. Bunday yengilmas kuch manbai esa avvalo insoniyat tafakkurining buyuk kashfiyoti - kitob va kutubxonalarida»

Sh. M. Mirziyoyev

Kitobxonlik bu – ma'rifikatdir. Ma'rifikat esa dunyoni(hayotni) anglash, bilimlarni egallash va oshirish, ilm-fan yutuqlarini egallash, o'qish-o'rganish, o'zlikni anglash va uni hayotga tadbiq qilishdir. Bunga erishishning manbai esa kitobdir. Buyuk ma'rifikatparvarlarimiz bola tarbiyasida kitobning o'rni benihoya muhimligini, kitobni nihoyatda qadrlashni va undan samarali foydalanishni ta'kidlab o'tishgan. Mamlakatning taraqqiyoti, rivojlanishi, xalqning, millatning madaniyati va ma'rifikatining yuksakligi bilan o'lchanadi.

Hozirgi kungacha Prezidentimizning kitobxonlikni rivojlantirishni o'zları har tomonlama rahnamolik qilib kelishlari bu sohada yirik islohotlarga yo'l ochdi. Jamiyatimizda kitobning nufuzini, kitob va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda rivojlantirishga qaratilgan loyihalar, tanlovlardan amalga oshirilishi bugungi yoshlarimizga o'zligini anglash, mustaqil fikr yurita bilish, o'zlashtirganlarini hayotga va Vatanimizni har tomonlama yuksaltirishga tadbiq qilishni o'rgatishga qaratilgandir. Darhaqiqat, kitob inson hayotida yo'l ko'rsatuvchi mash'aldir.

Buxoro viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasining "O'quvchi-yoshlar o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish va mutolaa madaniyatini oshirish" bo'yicha tasdiqlangan "Yo'l xaritasi"da belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida viloyat Bolalar kutubxonasi tomonidan oyda bir marta maktab kutubxonalari faoliyatini, ish tajribasini ommalashtirish maqsadida "Ilg'or ish tajriba" maktabi mashg'ulotini o'tkazish rejalashtirilgan.

Joriy yilning fevral oyida Jondor tumani 2-umumta'lim maktabi kutubxonasi faoliyati, ish tajribasi o'rganib chiqildi va aynan shu maktab kutubxonasi ish tajribasini tuman, viloyat miqyosida ommalashtirish belgilandi.

Jondor tumani 2-umumta’lim maktabi kutubxonachisi Jumayeva Gulrux Baxtiyorovna Buxoro Madaniyat texnikumi kutubxonachilik bo‘yicha o‘rtamaxsus ma’lumotli, uch yildan buyon faoliyat yuritib kelmoqda.

Jondor tumani 2-umumta’lim maktabi kutubxonasi kitobxonlarga an’anaviy axborot xizmati ko‘rsatilmoqda, o‘quvchilarning kitob mutolaa qilishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Kutubxona zamonaviy kitob javonlari va boshqa mebel jihozlari bilan ta’minlangan.

Maktab kutubxona fondi 3625 nusxa kitoblardan iborat bo‘lib, lotin yozuvidagi adabiyotlar soni 2000 nusxani tashkil etadi. Kitob fondi “Kitob bizni birlashtiradi”, “Kitob bilan ziyo ulash” aksiyasi va xayriya tadbirlaridan qiziqarli va ommabop kitoblar bilan boyitilmoqda.

Maktab kutubxonasida adabiyotlarni targ‘ib qilish maqsadida “Prezident asarlarini o‘rganamiz”, 2025-yil “Atrof-muhitni asrash va „yashil“ iqtisodiyot yili”, “Jadid adabiyoti namoyondalari”, “Shoir va yozuvchilar asarlari durdonalari” mavzusida kitob ko‘rgazmalari tashkil etilgan.

Foydalanuvchilar o‘rtasida kutubxonachilik-bibliografiyaga doir bilimlarni targ‘ib etish, davriy nashrlar bilan ishslash maqsadida kutubxonada mavzuli kartotekalar tashkil etilgan va adabiyotlarning tavsiyaviy ro‘yxatlari chiqarilgan.

Umumiyl o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilari o‘rtasida ularning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini yanada shakllantirish, ajdodlarimizning boy ma’naviy merosini keng targ‘ib qilish orqali kitobxonlikka jalb etish, buyuk jadid allomalar hayoti va ijodi bilan tanishtirish, kitobxon bolalarni aniqlash hamda ularni qo‘llab-quvvatlash maqsadida “Yosh kitobsevarlar”, “Jadidlar izidan” to‘garak va klublar faoliyati tashkil etilgan.

O’quvchi-yoshlar o‘rtasida kitob o‘qishni targ‘ib qilish bo‘yicha “Kitob o‘qish”, “Bir haftada bir kitob o‘qish” loyihasi joriy etilgan. Mutolaa savodxonligi, o‘quvchilarda kitob o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish, innovatsion yondashuvlarni amaliyotga samarali tatbiq etish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Oilaviy kutubxonalar nafaqat uyning bezagi, balki jamiyat egalarining tafakkurini belgilovchi mezon ekanligini ham unutmasligimiz kerak. Oilaviy kutubxonani tashkil qilish, oilada kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda ota-onalarning tashabbusi muhim hisoblanadi. Kutubxonada ota-onalar hamkorligida “Mutolaa oiladan boshlanadi” mavzusida davra suhbatlari tashkil etilmoqda.

Kitobxonlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida “Badiiy asarlar bilimdoni”, “Buvimdan eshitgan ertaklar”, “Onamning ertaklari”, “Mening sevimli kitobim” kabi turli tanlovlardan tashkil etilmoqda.

O’quvchilarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish – bu kitobxonlarning qiziqishlarini o’rganish, rejalashtirish, kitoblarni tavsiya qilish, o’quvchilar mustaqil mutolaasini nazorat qilish, sinfdan tashqari o’qish, sinfdan tashqari o’qishning turli metodlaridan foydalanish kabi bosqichlarni o’z ichiga oladi.

Maktab kutubxonasida o’quvchilarni kitob mutolaasiga qiziqtirish maqsadida kutubxonani bezash alohida o‘rin tutadi. “O‘zbek va Jahon bolalar adabiyoti namoyondalari”, “Buyuk allomalar” va “Kitobxonlikka doir iqtiboslar” bilan to‘ldirish tavsiya etiladi.

Ilm o‘rganish har bir mo‘min uchun farzdir. Ilm tolibi uchun hamma narsa, hatto dengizdagagi baliqlar ham gunohini so‘rab istig‘for aytadi.

Hadisdan

Ilm ibodatdan afzaldir, u dinni tutib turuvchi ustundir.

Hadisdan

Ilm ikki xildir: biri qalbdagi ilm bo‘lib, u foydalidir. Ikkinchisi tildagi ilm bo‘lib, u Tangri huzurida banda zarariga dalil bo‘ladi.

Hadisdan

Kimki kitobga ko‘p boqsa, kitob uning zehnini ochadi, zavqini oshiradi, so‘zga chechan qiladi.

Kitob yolg‘izlikdagi eng munis hamdamdir.

Kitobdan yaxshiroq do‘st yo‘q jahonda,

G`amxo‘ring bo‘lgay u g‘amli zamonda.

U bilan qol tanho, hech bo‘lmas ozor,

Joningga yuz rohat beradi takror.

Abdurahmon Jomiy

Kitobni birovdan qarz so‘raganni

Oqillar safiga qo‘shmay qo‘ya qol,

U goh qo‘yindadir, gohi bag‘rida

Kitob egasining mahbubi misol.

Birov, kitobingni berib tur, desa,
Ablahlar so‘zidek keladi malol.

Alisher Navoiy

Hamsuhbat topmasang, adab bog‘in top,
Bahri diling ochadi shirin so‘z kitob.
She‘r bilan do‘st bo‘lsang, fikring uyg‘otar,
Ma’no gulobidin may - qadah tutar.
Kitobga do‘st bo‘lsang, ilm-odob kelur,
Do‘stlikdan farog‘at, lazzatu surur.

Abu Ahmad al-Kotib

Kitob (bitik) barcha bunyodkorlik, yaratuvchilik va aql- idrokning, ilm-u donishning asosidir, hayotni o‘rgatuvchi murabbiydir.

Amir Temur

Kitob bergen odobni ota-onang berolmas,
Dili so‘qir kitobdan odob gulin terolmas.

Sh. Shomuhamedov

Kitoblar inson tafakkuri javohirlarini yig‘ib, avlodlarga meros qoldiradi.
Oybek

Kitoblar zamon to‘lqinlarida suzuvchi va o‘zining qimmatbaho yukini avlodlardan-avlodlarga avaylab eltuvchi tafakkur kemalaridir.

Frensis Bekon

Kitobni qadrlamoq kerak, bu tafakkur qasriga izzat-ehtirom bilan qadam qo‘ymoq lozim.

Gersen

Kitoblar xazinasi, umuman olganda, hayotning o‘ziga xos badiiy ko‘zgusidir.

N. Rubakin

Kitob bo‘lmasa, kitobdan yog‘ilib turgan ziyo bo‘lmasa, inson taraqqiyotining hozirgi yorug‘ cho‘qqisiga yetmas edi.

G`afur G`ulom




YANGI ADABIYOTLAR KO'RGAZMASI

Mazkur ko'r gazma yangi olingan kitoblar hamda kitobxonlarga tizimli ravishda axborot berib borishga mo'ljallangan. Kutubxonalarda ijtimoiy-siyosiy, tabiiy-ilmiy, ishlab chiqarish texnikasi, badiiy adabiyot kabi har bir katta bo'limga vitrinada alohida tokcha ajratiladi. Ko'chirma (sitata) va rasmlar qo'llanilmaydi. Ko'r gazmaga "Yangiliklar", "Yangi kelgan kitoblar" yoki "Yangi kitoblar" kabi sarlavhalarni qo'llash mumkin. Yangi adabiyotlar ko'r gazmasi ma'lum bir kunda: yirik kutubxonalarda haftada bir marta, qolganlarida oyda bir marotaba tashkil etiladi.

KITOB KO'RGAZMASINI TAYYORLASH VA MAVZULI KARTOTEKANI TUZISH METODIKASI

Katalog va kartotekalar, ro'yxatlar, bibliografik ko'rsatkichlarga nisbatan kitob ko'r gazmalarini adabiyotlar targ'ibotining juda keng qo'llaniladigan shaklidir. Bundagi adabiyotni bevosita ko'rsatish har qanday kitobxon diqqatini o'ziga tortadi. Ko'r gazmaning samarasi, ta'siri uni tayyorlash sifatiga bog'liq. Mavzuli kartoteka. Ko'r gazmaga hajmi uncha katta bo'limgan kartoteka ham tuzilishi maqsadga muvofiqdir. Unda ko'r gazmadan joy olmagan adabiyotlarning (mavzu doirasida) tanlab tavsiflangan kartochkalari joylashtiriladi. Ko'r gazma bilan ishslash. Ko'r gazmadagi adabiyotlarni o'qish uchun berish, ko'r gazmaning o'zini targ'ib qilish bo'yicha ish olib boriladi. Mavzuga oid berilgan kitoblarning miqdoriga qarab ham ko'r gazmaning muvaffaqiyatini bilish mumkin. Shuning uchun ko'r gazmada berilgan har bir kitob alohida hisobga olib boriladi. O'tkazilishi rejalashtirilgan yoki o'tkazilgan ko'r gazma tadbirlarining tahlili, har qanday kutubxona uchun muhim yo'nalish hisoblangan ushbu faoliyatni mukammallashtirib, tadbirni kitobxonlarning talab va qiziqishlariga yaqinlashtirishga xizmat qiladi.

KITOB TANLASHDA ADABIYOTLARNING TAVSIYAVIY RO'YXATLARI



KITOB – MOZIY DARAKCHISI, BUGUNNING TARBIYACHISI VA MUALLIMI, KELAJAKNING YO‘LBOSHCHISI

Bugungi kunda kitob mutolaasi, kitobxonlikni rivojlantirish borasida turli mazmundagi tadbirlar, kitob ko’rgazmalari tashkil etib kelinmoqda. Ammo hozirgi davr yoshlarni kitob mutolaasiga qiziqtirish uchun qanday yangi usullardan foydalanish mumkin?

Yoshlar, asosan, nimalarga qiziqadi? Albatta, qiziqarli o’yinlarga. Kitob mutolaasi bo’yicha televidenie, radio orqali turli asarlar yuzasidan 1-4 sinf o’quvchilari o’rtasida o’qigan kitoblar asosida “Kitobsevar bolajonlar”, yosh kitobxonlar o’rtasida 10-20 tagacha adiblar yashiringan kataklar asosida nomerlab belgilanadigan “Ilmga baraka” kabi tanlovlarni o’tkazish orqali yoshlarimizda kitobga bo’lgan mehrini shakllantirib borishimiz mumkin.

Mutolaa madaniyati juda keng ma’nodagi tushuncha bo‘lib, kitobga qiziqish va uni sevish, adabiyot bilan kengroq tanishib, kitob bilan ishslash haqidagi maxsus bilimlarga ega bo‘lish, shuningdek, kitobdan to‘la ravishda foydalana bilishda yordam beruvchi ko‘nikmalardan iborat. Kitobxonlik madaniyati kitobxonga o‘qiyotgan asarini to‘laqonli tushunish, undan badiiy-estetik zavq olish, yozuvchi fikri, asar g‘oyasini anglash va baholay olish, bundan tashqari kitob va kutubxonadan foydalanish, ma’lumotnomabibliografik apparatidan o‘zini qiziqtirgan yoki zarur masalalarga doir kitoblarni topib olish va undan foydalanish yo‘llarini o‘rgatadi. Kitob tanlash, uni tez o‘qish, o‘qilgan kitoblarni boshqalarga tavsiya etish, avaylab saqlash ham kitobxonlik madaniyatining tarkibiy qismlariga kiradi.

JONDOR TUMANI 2-UMUMTA’LIM MAKTABI KUTUBXONASINING 2024-2025-O’QUV YILI UCHUN “YOSH KITOBSEVARLARLAR ” TO’GARAGINING ISH REJASI

№	MAVZULAR
1	To’garakning maqsad va vazifalari
2	Hozirgi zamonda kitob nashr etish
3	Kitob va uning tarkibiy qismi
4	Kitob o‘qish qoidasi va gigiyenasi

5	Qo'lda kitobni muqovalash
6	Kitob yelimlashda xavfsizlik qoidalari
7	Eng oliy mo'jiza
8	Ajdodlari buyuk yurt
9	Kishini kitob o'qish doirasi
10	Kitob mening boyligim
11	Kitoblarga ishlov berish
12	Kitob hech qachon eskirmaydi
13	Ertaklar sehrli olami
14	Bir umrlik qadrdon do'st
15	Jajji kitobxon
16	"Sinf kutubxonasi" ko'rgazmasini tashkil etish
17	Bolangiz qanday kitob o'qiydi
18	Kitob-aql qal'asi, javohirlar xazinasi
19	Kitob bilim manbai
20	Kitobni ko'z qorachig'iday asraylik
21	Kitob insonga yaqin do'st
22	Kitobga mehr
23	Eng aziz sovg'a
24	Ezgulik eshigini ochadigan nur
25	Kitob eng yaxshi me'mor
26	Kitob va men
27	Kitob o'qiymen ammo...
28	Kitob ma'naviyat sarchashmasi
29	Kitob varaqlarini bir-biriga yelimlash
30	Muqovalarni yasashni o'rghanish
31	Muqova chetlarini yelimlash
32	Bukletlar tayyorlash
33	Yakuniy mashg'ulot


“KITOBXON KUNDALIGI”

“Kitobxon kundaligi” ning maqsadi va vazifalari

Ma'naviy - axloqiy tarbiya bo'yicha dasturni amalga oshirish doiralarida o'quvchilarni kitobga va tizimli mutoalaga ommaviy oshno qilish orqali

mutolaa madaniyatini tarbiyalash hamda ma’naviy – axloqiy qadriyatlarni shakllantirishdir.

Kitobxon kundaligi umumta’lim maktablari o‘quvchilarida bolalar nutqini rivojlantirish, o‘qish sifatini, ijodiy salohiyatlarni yuksaltirishga imkon yaratadi.



YOSHLAR ORASIDA KITOB MUTOLAASI VA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA MA’NAVIY- MA’RIFIY TADBIRLARNING AHAMIYATI

Bugungi kunda o‘sib kelayotgan yosh avlodning bilim - saviyasini oshirishi, kitobga bo‘lgan muhabbatini, ma’naviyatini yuksaltirish borasida yangi qadam tashlanib, kitobxonlik madaniyatini yanada oshirish, noshirlik, matbaa sohalarini rivojlantirish hamda mazkur yo‘nalishda faoliyat olib borayotgan maktab kutubxonasida qo‘llab - quvvatlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

“KITOB – MO‘JIZAGA CHORLAYDI” MAVZUSIDA TADBIR SSENARIYSI

1-Boshlovchi: Assalomu aleykum hurmatli mehmonlar! Sizlarni ko’rib turganimdan xursandman. “Kitob – mo‘jizaga chorlaydi” nomli tadbirimizni ochiq deb e’lon qilamiz.

2-Boshlovchi: Kitob – oftob. Zaminni, ona tabiatni oftob isitsa, odam qalbini kitob ilitadi, nafaqat ilitadi, balki yoritadi, nurlantiradi. Kitobga eng qisqa ta’rif berish joiz bo‘lsa, uni ma’naviyat quyoshi deb ta’riflash o‘rinlidir. Ya’ni, quyosh bo‘lmasa olamning, tabiatning, hattoki hayotning bo‘lishi

shubha ostida qoladi, kitob bo‘lmasa, ma’naviyatning rivojlanishi ham mavhum bir fikr bo‘lib qolaveradi.

1-Boshlovchi Kengroq mushohada yuritadigan bo‘lsak, millat barkamolligi, Vatan taraqqiyoti elning kitobxonlik darajasiga, ya’ni o‘qimishliligiga bog‘liq. Istiqłoldan so‘ng mustaqil mamlakatimizda Prezidentimiz tashabbusi va bevosita e’tibori tufayli sog‘lom avlodni tarbiyalash borasida ibratli ishlar amalga oshirilmoqda. Mehnat jamoalarida sport-sog‘lomlashtirish inshootlari, tennis maydonchalari barpo etildi. Biroq sog‘lom avlod deganda faqatgina jismonan baquvvat insonnigina tushunish masalaga biryoqlama yondashish bo‘lur edi. Avlod barkamolligi uning ma’naviy kamolotiga ham ko‘p jihatdan bog‘liq. Ana shuni nazarda tutsak, o‘shanday binolar yonida kitob do‘konlari, kutubxonalar qad rostlasa nur ustiga a’lo nur bo‘lar edi.

1-o‘quvchi

*Har ko ‘ngilning orzusi shul erur obi hayot,
Qadrini bilgan kishiga shubhasiz jondir kitob.
Ko ‘zning nuri, dil sururi dillarning darmonidir,
Har qorong‘u dilga go ‘yo mohitobondir kitob.
Har balodan asraguvchi eng muhim himmat yarog‘,
Tiyri vahshat xanjari zillatga qalqondir kitob.
Har kishi yoshlikda qilsa vaqtida g‘ayrat agar,
Tez zamonda oshno bo ‘lmog‘i osondir kitob.*

2-o‘quvchi

O‘quvchilar qalbida yuksak ma’naviyatni shakllantirishda kitob va kitobxonlikning ahamiyati beqiyosdir.

Kitob asrlarni-asrlarga, zamonlarni-zamonlarga, rishtalarni-rishtalarga ulovchi vosita. “Kitobsiz xonodon jaholatga o‘xshaydi”, degan ekan bir donishmand. Lekin to‘g‘ri kelgan kitobni o‘qish ham yaramaydi. Chunki buning bir qator sabablari bor. Avvalo, insonning umri barcha kitoblarni o‘qishga yetmaydi. Bundan tashqari, duch kelgan asarni o‘qib ketaverish kishining saviyasiga, uning dunyoqarashining shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi ham mumkin.

3-o‘quvchi

*Ilm kaliti – kitob,
Gar o‘qisang bobma-bob,
O‘rganib bor bilimni,
Ochar bag‘ri dilingni.
Safarga chiqqan chog‘ing,
U eng yaqin o‘rtog‘ing.*

*Oshno bo 'lsang kitobga,
Yuksalasan oftobga.*

1-Boshlovchi

Inson tabiatini, fe'l-atvori, ruhiyatiga mos narsalarga qiziqadi. Kimdir tarixiy kitoblarga qiziqsa, kimdir falsafiy romanlarni o'qiydi, kimdir sarguzasht asarlarni yoqtirsa, yana kimdir hajviy asarlar ixlosmandi. Yana bir boshqa odam esa she'riyat shaydosi bo'ladi. Shuningdek, kitoblarning davriyligi ular uchun muhimdir. Masalan, mumtoz-an'anaviy, zamonaviy adabiyot namunalarining ixlosmandlari ham o'ziga yarasha topiladi. Odamning o'qiyotgan kitobiga qarab ham uning maqsad va intilishlari, fe'l-atvori, kayfiyatini aniqlash mumkin. Shu ma'noda unga ana shu qiziqishlarini hisobga olgan holda kitob o'qishni tavsiya qilish mumkin.

4-o'quvchi

*Kishilar savdosi boshimdan yiroq
Erta-kech bo 'lmisham kitobga o'rtoq*

2-Boshlovchi

Bilasizlarmi, mashhur kinoaktyor kung-fu ustasi Bryus Li kitob mutolaa qilishni judayam yaxshi ko'rар, ularga g'oyalarning sarchashmasi deb qaragan ekan. Bryus Lining kutubxonasida falsafiy kitoblar har qanday amerikalik faylasufning kitoblaridan-da ko'p bo'lган.

5-o'quvchi

O'quvchilarning kitob o'qishga bo'lган havaslari oiladan boshlanadi. Otabobolarimiz xonardonlarida Mashrab, Navoiy, Bedil va boshqa shoirlarimizning asarlarini maroq bilan o'qishgan. Farzandlari kitobxonlik davralarida ishtiroy etishgan. Natijada ularda kitob o'qishga havas uyg'ongan.

6-o'quvchi

Bilim manbai bo'lган kitobni sevish va o'qish uchun uni tanlay olish va o'qish madaniyatini bilish kerak. Kitob o'qish madaniyatiga kitob xarid etish va kutubxonani muntazam boyitib borishga alohida e'tibor bilan qarash, kitob saqlash odobi, o'qish jarayoni, o'qiganni o'ziga va hayotga tatbiq etish, bilish kabi yana o'nlab masalalar kiradi.

7-o'quvchi

*Kitobdan yaxshiroq do 'st yo 'q jahonda,
G 'amxo 'ring bo 'lgay u g 'amli zamonda.
U bilan qol tanho, hech bermas ozor,
Joningga yuz rohat beradi takror.*

1-Boshlovchi

Biz o‘quvchilar esa o‘z navbatida kutubxonalarimizni turli janrdagi adabiyotlar bilan boyitishimiz mumkin. Buning uchun har bir o‘quvchi o‘z ixtiyori bilan bittadan kitob olib kelib topshirsa, kutubxona 20-30 dona kitob bilan qo‘srimcha ravishda boyiydi. Natijada 1 dona kitob olib borgan o‘quvchi yana 20-30 dona yangi kitob o‘qish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

2-Boshlovchi

O‘qish va uning orqasida keladigan zakovat mamlakatni dunyoga tanitishdan ham zarurroq bo‘lgan narsaga – ma’rifatga yo‘l ochadi. Ma’rifatli, ya’ni ma’naviyati yuksak va bilimi teran bo‘lgan kadrlar yurtni farovon qiladi, mamlakat taraqqiyotini tezlashtiradi. Chinakam bilimni esa kitob o‘qimasdan turib egallah aslo mumkin emas. Shunday ekan “har doim bo‘lsin kitob” deymiz.

O‘QUVCHILAR O‘RTASIDA BUYUK JADID ALLOMALAR HAYOTI VA IJODINI KENG TARG‘IB QILISH BO‘YICHA TEST SAVOLLARI

1. Milliy dramaturgiya va sahna san’atining shakllanishi, yangicha ilg‘or hamda serko‘lam publitsistikaning vujudga kelishi qaysi ijodkor nomi bilan bog‘liq?

A) M.Behbudiy B) A.Avloniy C) A.Fitrat

2. “Padarkush” dramasida kimga “*boyning qotili*” deb ta’rif beriladi?

A) Toshmurod B) Davlat C) Tangriqul

3. “Padarkush” dramasida boyning yoshi nechada deb ko‘rsatiladi?

A) 45 yashar B) **50 yashar** C) 40 yashar

4. A.Avloniy xalq bolalarini o‘qimishli qilish maqsadida pul yig‘ib maktablarga topshirish uchun qanday tashkilot ochdi?

A) G‘ayrat B) Jamiyati jadid C) Turon

5. “Alhosil..... biz uchun yo hayot- yo mamot, yo najot- yo halokat, yo saodat- yo falokat masalasidir”.

Ushbu parchada nuqtalar o‘rniga qo‘srimidan so‘zni toping?

A) Ta’lim B) **Tarbiya** C) Ilm

6. A.Qodiriyning “Uloqda” hikoyasida chavandoz bolaga “Saning otdan baxting bor ekan”, deb havaslangan bolaning ismi ...?

A) Shokir B) Haydar C) **Nurxon**

7. A.Qodiriyning “Uloqda” hikoyasida “oq jujuncha kamzulni, o‘ruscha shimni, amirkon etukni, duxoba to‘ppini kiygan” qahramon kim?

A) Turg‘un chavandoz B) Mahkam C) Tog‘onbek

8.Hamdam xumdonchi obrazi A.Qodiriyning qaysi hikoyasida uchraydi?

A) Uloqda B) Jinlar bazmi C) Baxtsiz kuyov

9. A.Qodiriyning “Jinlar bazmi” hikoyasida bolaning otasining ismi kim edi?

A) O‘sar aka B) Hamdam xumdonchi C) Shokir aka

10. A.Avloniyning “Vatanni suymak” parchasi qaysi asar tarkibida uchraydi?

A) “Turkiy Guliston yoxud axloq” B) “Birinchi muallim”

C) “Ikkinchchi muallim”

YOZUVCHI G‘AFUR G‘ULOMNING “SHUM BOLA” ASARIDAN VIKTORINA SAVOLLARI

1.“Xotin qozonning qopog‘ini ochdi baliqday bo‘lib, oppoq laganda moshkichiri chiqdi, o‘rtaga qo‘ydilar”. Ushbu parcha qaysi asardan olingan va uning muallifi kim?

(G‘afur G‘ulom “Shum bola”asaridan)

2. “Shum bola” qissasida shum bola Sariboyga qanday yomon odati borligini oldindan aytadi?

(Har zamonda beixtiyor yolg‘on gapirib qo‘yishi).

3. “Shum bola” qissasida shum bola pochchasiga qanday zarar keltirgan?

(Avaylab boqayotgan qimmatbaho qushlariga qattiq, suzma ichirib harom o‘ldirib qo‘ydi.)

4. “Shum bola qissasida” xo‘jayinlarning ichida eng xudo urgan badbaxti ziqnasi kim edi?

(Sariboy)

5. “Hazrat bo‘lsa, o‘zini umr bo‘yi o‘likdan boshqa narsani yuvmagan kishiday qilib ko‘rsatishga harakat qilar edi”. Ushbu parcha qaysi asardan olingan va uning muallifi kim?

(Shum bola)

6. .“Shum” bola qissasida Sariboyning eng yomon odati nima yedi?

(Sariboy xizmatkorlarining yaxshi gapiga ham yomon gapiga ham “Indankeyin-chi” deb turardi. Agar savoliga umuman javob bermasa, boy tomonidan jazolanadi.)

7. “Shum bola” qissasida Sariboy shum bolaning qaysi gapini eshitgandan keyin choy ichib turgan piyolasini boshiga urib, chakkasini yordiyu, soqolini yilib, dodlab yig‘lamoqa tushdi?

(Kenjatoy o‘g‘li Bo‘riboyvachchaning o‘lganini eshitib.)

8. “Shum bola” qissasida xaroba uyni nashavand bangilar yig‘iladigan, takaxonaga aylantirgan, o‘zicha xudojo‘y qahramon nomi nima?

(Hoji bobo)

9. Shum bola nima sababdan uydan chiqib ketadi?

(Onasini xafa qilib qo‘ygani uchun)

10. Shum bola necha yil turli joylarda yuradi?

(Yarim yildan ortiq)

Bundan tashqari umumta’lim maktablari o‘quvchilari o‘rtasida “Bir haftada bir asar”, “Kitob lotto”, “Kitob marafoni”, “Kitobxon oila”, “Birga o‘qiymiz”, “Kitob-eng yaxshi tuhfa”, “Kitobxonlik – ma’naviy meros asosi”, “Sovrinli aksiya”, “Adabiy guldasta”, “Maktab kutubxonadan boshlanadi” loyiha va tavsiyalar asosida ish olib borish va tanlovlarni joriy etish zarur. Kutubxona fondini boyitish maqsadida aksiyalar tashkil etish:

- “Kechagi o‘quvchi, bugungi ota-onan – kitobxon oila”
- “Jonajon maktabimga kitob sovg‘a qilaman”
- “Farzandingizga kitob sovg‘a qiling”

Kutubxona ishini rivojlantirish, o‘quvchilarni bu maskanga ko‘proq jalb etish, u yerda ma’naviy-madaniy tadbirlarni o‘tkazish orqali uning nufuzini oshirish barchamizning kechiktirib bo‘lmaydigan vazifamizdir.

Xulosa qilib aytganda, komil inson bo‘lib yetishish uchun kitobning o‘rni beqiyosdir. O‘quvchilarni kitob bilan ishlashga odatlantirish ham tarbiyaviy ahamiyatga ega. Kitobxonlik yoshlarning ma’naviy boyligini oshiradi, ularni mehnat va ijodiy yo‘lga boshlaydi. Kitob hayotning ulug‘vorligini anglab olishga, u haqida mustaqil fikr yuritishga yordam beradi.

